



## An'anaviy she'riyatda pafos va Rauf parfi ijodi

Negmatova Mahliyo

**Annotatsiya:** Badiiy tafakkurda tushunchalar o'rnida badiiy obraz qo'llaniladi. Bu yerda har bir ijodkorning dunyoqarashi, ichki olami muhim rol o'ynaydi. Badiiy obraz ibtidosi ijodkorning ichki dunyosidan kelib chiqadi. Shoir yoki yozuvchining ichki hissiyotlari, ruhiy holatlari qo'shib, favqulodda obrazlar tug'iladi. Ijodkorning ongosti ruhiy holatlari ham o'zi anglamagan ravishda qo'shib ketishi mumkin. Ayni paytda ijodiy jarayondagi ratsionallik o'rnini ham inkor etib bo'lmaydi. Ijodkor ichki olami, kechinmalari, his-tuyg'ulari, o'y-fikrlarini obrazli ifodalar ekan, ushbu obrazlarning asosi g'ayrimantiqiy bo'lmasligi lozim, aks holda obrazli tafakkurning hayotiy asosi yo'qoladi.

**Kalit sozlar:** badiiy tafakkur, she'riyat, Rauf Parfi ijodi, poetik tafakkur, badiiylik

**Аннотация:** Визуальная песня вместо концепций в художественном мышлении. Здесь важную роль играет мировоззрение и внутренний мир каждого художника. Генезис художественного образа исходит из внутреннего мира творца. Внутренние переживания и ситуации поэта или писателя соединяются и рождаются созданные образы. Застенчивое психическое состояние творца также может быть самоочевидным. В то же время нельзя отрицать роль рациональности в творческом процессе. Поскольку творец выражает свой внутренний мир, переживания, чувства и мысли образно, основа этих образов должна быть алогичной, иначе будет утрачена жизненная основа образного мышления.

**Ключевые слова:** художественное мышление, поэзия, творчество Рауфа Парфи, поэтическое мышление, художественность.

**Abstract:** Artistic thinking uses an artistic image instead of concepts. The worldview and inner world of every artist play an important role here. The genesis of an artistic image comes from the inner world of the creator. The inner feelings and mental states of a poet or writer are combined, and extraordinary images are born. The artist's subconscious mental states can also be included without his awareness. At the same time, the role of rationality in the creative process cannot be denied. As the artist expresses his inner world, experiences, feelings, and thoughts figuratively, the basis of these images should not be illogical, otherwise the vital basis of figurative thinking will be lost.

**Keywords:** artistic thinking, poetry, Rauf Parfi's work, poetic thinking, artistry

Tamaddun qaysi ko'rinishda bo'lishidan qat'iy nazar, zamin-u zamoni o'zgartirishi, rivoj topishi bilan birga, uni anglovchi, sezuvchi, his qiluvchi insonni ham kamol topishi muqarrarligini ta'kidlaydi va Xuddi XX asrning birinchi choragida yashab ijod etgan jaded ijodkorlarimizdek, asr niyohasida "Sen –da hur tug'ilding. Bir so'zla. Bir o'l va bilgil qaylarda sarsondir Alam..." – deya hayqiradi. Bu misralarida R.Parfi cho'lponning "kishan kiyma, bo'yin egmaki, sen ham hur tug'ulgansan" misralaridan badiiy estetik bahra olganligini yashirib o'tirmaydi.



Mazkur sonetning yaratilish davri XX asrning oltmishinchi yillariga to'g'ri keladi. Bu davrda "xalq dushmani" deya e'tirof etilgan ijodkorlarning asarlaridan ijodiy bahra olish, ularning uslubiga ergashib she'r bitish o'ziga xos jasorat hisoblanadi. She'rning "Kelin ot o'ynatib Xaloskor sarboz" misrasida iste'dodli, mard, jasur xalq hech qachon belga qolmasligi o'ziga xos shoirona mahorat bilan tasvir etilgan. "Dusi kammakon – kol, zamona esa esib turuvchi el, Idindagi to'lqin inlaring bo'lsa, orqadagi to'lqin – og'alarindir, navbat bilan olishar, avvalgiday bo'lishar" – degan edi qoqzoq xalqining xassos shoiri Abay "Naqmiya so'zlar" asarini o'ttiz yettinchi so'zida

Darhaqiqat, inson umri azim ko'l kabi mavjlanib turuvchi dunyoda tinim bilmas el singari o'tib boraveradi. Bu ko'lda mavj urayotgan to'lqinlar hammaga har xilcha ta'sir ko'rsatadi: Kimnidir umr bahorin kuzga aylantilaradi. Kimnidir eng yaqinlaridan ayiradi, kimgadir unutib bo'lmas zavq naxsh etadi. Umr daryosini bunday to'lqinlarini hech kim hech qachon hech narsa bilan jilovlay olmagan. Faqat uni ongli tarzda idrok etish mumkin.

Rauf Parfining "Sohil sari borardi bir chol" misrasi bilan boshlanuvchi she'rini lirik qahramoni oqishdan to'xtamaydigan azim daryoda bir somon cho'piday oqim izmidagi butun bani basharni umumlashma obrazi hisoblanadi.

Sohil sari borardi bir chol,  
Qo'lda hassa, shoshib borar ul.  
Har kun takror bo'lar ushbu hol,  
G'udranadi asabiy nuqul.  
Qandayi sir border bu yoqda,  
Azim daryo sen, o'zing aytgil.  
–Huv, yoshlik qlogan qirg'oqda,  
Yoshligini izlab kelar ul.

Murakkab tahayg'al asosiga qurilgan mazkur misrada inson umri "qarilik va yoshlk" kabi ikki qutbdan iborat ekanligi mohirona aks ettirilgan. Shoir "Yog'ar oppoq pag'a-pag'a qor" she'rida: "Huv yiroqda gulagan bahor"ga tashbeh qilgandi. Mazkur she'rda esa "daryoning qirg'og'i xuddi shunday vazifani bajargan. She'rdagi "chol" obrazini shoirning o'zi yoki uning hayotiga dahldor biror kishi deb bo'lmaydi. Chunki bu obraz umr daryosining oqimiga hech qanday qarshilik ko'rsata olmaydi. Uning izn-ixtiyoriga to'la bo'ysinuvchi butun ijodining umumlashma obrazidir. She'r uchun badiiy makon vazifasini ona tabiat, borliq, dunyo o'tagan bo'lsa, badiiy zamon vazifasi esa inson umrining qishi ya'ni qarilik chog'i kelgan.

Qo'lda hassasi bilan shoshib, asabiy, g'udrang holda daryo sohili tomon borayotgan chol obrazida "Yoshlik – zangor fasl"ni qumsash, bemavrid hayot shamoli keltirgan "qor'larni boshqa qo'nishi kabi holatlar tasvirlanganki, bunda har bir inson o'tayotgan umrini har bir soniyasini qadrlash ma'lumligini ko'rsatadi, his qiladi, uni burun vujudi bilan qadrlashga urinadi. She'rda tilga olingan daryo oddiy daryo emas, u umr daryosi, uning sohillarida go'zallik ilk bor o'zlikni anglash, ilk bor qo'lga qalam olishni o'rgangan chog'lar, birinchi muhabbat, hayot tashvishlarini tirikchiliklarini idrok etish kabi umrning unutib bo'lmas parchalari-bo'laklari birin-ketin qolib ketaveradi. Ularni qumsash, sog'inish mumkin, ammo unga qaytib bo'lmaydi, chunki umr daryosi hech qachon orqaga qaytmaydi. Shuning uchun ham she'r qahramoni "g'udrandi", "asabiy", kabi so'zlarni ishlatadi.



Rauf Parfi she'rlarida inson umri fasllar, yoki daryo kabi obrazlarda ifoda etiladi. Inson umrining daryoga qiyoslanishi o'zbek she'riyatida ko'p uchraydi. Jumladan, O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azim bir she'rida:

Sohildan uzildi vaqt bilan o'ynab,  
O'yladim: dorida dahrning dushi.  
O, balki vaqt yurmas daryolar bo'ylab,

Erdan falak sari oqadir balki, – deya vaqtni aniqrog'i umrni yerdan falak sari oqadigan daryoga o'xshatadi. Odatda, daryo yuqoridan quyiga tomon oqadi, vaqt daryosi esa buni aksi. Oqqan joyida tiriklik ne'matlarini undirgan daryo bilan barcha tirik mavjudodlarni hayotini sabr bilan oqizib borib, ruhiyatini falak sari oqizib ketuvchi daryonig farqi juda katta. U umr daryosidir. Rauf Parfining Sohil sari borardi bir chol" she'rida aks ettirilgan daryo ham falak sari oquvchi daryo hisoblanadi. Ko'rinib turibdiki, she'rning mazmun salmog'ini, badiiy jozibadorligini anglashda poetik pafosning uni o'zida mujassam etgan badiiy detallarni o'rni beqiyos.

Rauf Parfining "Oydinlik", "Muncha g'amgin bo'lmasa uylar", "Mudrar yarim kecha uyquda", "Yog'ar oppoq pag'a-pag'a qor", "yoshlik", "termulaman olis ufqqa", "Butun kecha o'chgan va sokin", "Shivirlaydi yomg'irga yashab o'tgan xazonlar", "yoshlik zangor fasl, kechdi sarg'ardi" kabi she'rlarida inson umri haqidagi noyob badiiy topilma hisoblanuvchi tasvirlar borki, ularning barchasi murakkab taxayyul asosiga qurilgan va ularning barchasi uchun inson umri, hayoti badiiy zamon bo'lsa, ona sayyora makon vazifasini bajaradi:

Shamol sochlarimni tarama,  
Oqarsa oqarsin azobdan.  
Qismat, hayron bo'lib qarama,

Axir ayirmading qahr-g'azabdan. – deya shoir o'z umrining ma'lum bir davrini ham badiiy pafosning ifodaviyligini konkretlashtiruvchi omil sifatida qo'llaydi va bu bilan o'z dardi faqatgina o'ziniki, emasligini, shoir zoti hech qachon o'zi uchun yashamasligini uqtirish orqali shoirona tasvir aks eta olgan.

Chunki she'riyatda badiiy tafakkur tushunchasini aniq belgilab olmasdan, uning 80-yillar o'zbek she'riyatidagi yangilanish bosqichlarini, o'ziga xos jihatlarini va bu jarayonda shoir Rauf Parfining o'rnini alohida ko'rsatish mushkul. Ushbu nazariy masalalarning yechimi bevosita ana shu tayanch tushunchaning yoritilishi bilan chambarchas bog'liqdir.

O'zbek adabiyotshunosligida "poetik tafakkur", "badiiy tafakkur" atamaları baravar qo'llaniladi. Biz "badiiy tafakkur" atamasini ma'qul topdik. Chunki "Adabiyot nazariyasi" kitobining "Ijodiy metod" bo'limida muallif bevosita "badiiy tafakkur" atamasini qo'llaganligi ham bizga asos bo'ldi. Kitobda badiiy tafakkur tushunchasiga bevosita ta'rif berilmasa- da, uning ikki tipi alohida ajratib ko'rsatilgan. Bular: birinchi xil badiiy tafakkur – "romantik tafakkur tipi", ikkinchi xil tafakkur – "realistik tafakkur tipi" deb nomlangan<sup>7</sup>. Ma'lum bo'lmoqdaki, muallif badiiy tafakkur deyilganda "...yozuvchilarning hayotga, tasvir etilayotgan hayotiy materialga munosabatlarining va hayotni tasvir etishlarining o'ziga xosligi"ni nazarda tutadi. Adabiyotshunos B.Sarimsoqov "Badiiylik



asoslari va mezonlari” kitobida badiiylik san’atning barcha turlari uchun mezon ekanligini ta’kidlar ekan, san’atga tegishli atamalar “badiiy asar”, “badiiy obraz” va boshqalar qatorida “badiiy tafakkur”ni ham keltirib, ularda badiiylik asosiy aniqlovchi sifatida kelishini ko’rsatadi<sup>9</sup>. Muallif badiiylikka “san’atning bosh xususiyati sifatida badiiylik voqelikni betakror obrazlar asosida aks ettirishini, tor ma’noda esa “badiiylik” san’at asarining estetik mohiyatini belgilovchi mezonni anglatadi”, deya ta’rif beradi.

Shoir Vatan haqida kuylar ekan, tug‘ilgan zaminga bog‘langanlik, undan uzila olmaslik va yurtga muhabbat tuyg‘ularini oddiy, barcha uchun birdek tushunarli tushuncha – obrazlar vositasida mubolag‘ali tasvirlaydi. Shoir vatanini yurakning eng chuqur tublariga joylab sevishtirishning o‘lchamsiz o‘lchamini topa bilgan. O‘quvchi esa o‘z tafakkuridagi ushbu obrazlarga zamin bo‘lgan tushunchalar vositasida shoirning kechinma va fikrini uqadi, aniqroq aytilsa, falsafaning irratsional oqimi badiiy tafakkurga yondashadi. Irratsional faylasuflarning barchasi badiiy tafakkurga jiddiy e’tiborda bo‘lganlar. Irratsional falsafa aniq fanlarga nisbatan san’at, adabiyot, musiqaga juda yaqin. Chunki irratsional faylasuflar aynan badiiy tafakkur orqali inson qalbi ochiladi, deb hisoblaydi. Shu bois ular badiiy tafakkur “meva”lariga yuqori baho berganlar. A.Shopengauer, F.Nitsshe, O.Shpengler falsafiy asarlarida obrazli ifoda ustuvor ko‘rinish oladi.

Yuqorida aytilgan fikr-mulohazalarni umumlashtirgan holda, badiiy va ilmiy tafakkur o‘rtasidagi farqli jihatlarni quyidagi ko‘rinishda aytib o‘tish mumkin:

Badiiy tafakkurda ilmiy-mantiqiy tafakkurdagi izchillik, aqliy o‘lchamlar buziladi.

Badiiy tafakkurdagi ifoda aql mezonlariga sig‘maydi. Badiiy tafakkur “Oltin sochli bahor qizi”, “Quyosh – qiz” (Oybek), “Zilol sahar”, “Gul kiprigi oppoq”, “Kiyintirsam seni bahorga, Yulduzlarni o‘rasam qorga” (H.Olimjon), “Kiprigi ko‘ksiga soya solgan qiz”, “Yurak, sensan mening sozim” (U.Nosir), “Shamshir kabi yaltirab yotar daryo”, “Chuvaladi o‘ylarim sensiz, Xayolimga taroq urgayman” (A.Oripov), “Daryo kabi doimo uyg‘oq”, “Bul xafa kecha kechar” (Rauf Parfi), “O‘sayotgan kuchli daraxtman, shoxlarimda pishar so‘zlarim”, “Gullayotgan tosh” (SH.Rahmon), “Tong titraydi kech kuzakning quchog‘ida” (U.Azim) kabi favqulodda obrazli ifodalarni yaratadi. Ilmiy-mantiqiy tafakkur esa hech qachon bahor va quyoshni qiz yoki kiprikning ko‘krakka tushishini qabul qila olmaydi. Badiiy tafakkur mevalari ilmiy-mantiqiy tafakkur mezonlari bilan o‘lchansa, mantiqsiz bo‘lib ko‘rinadi.

## FOYDALANILGA ADABIYOTLAR ROYXATI

1. Mirziyoyev Sh. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. Prezident Sh.Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi // “Xalq so‘zi” gazetasi. 2017 yil 4 avgust.



2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017 yil 22 dekabrda Oliy majlisga murojaatnomasi // Xalq so‘zi, 2017 yil 23 dekabr. №258.
3. Karimov N. Istiqlol davri she‘riyati – Toshkent: “Zarqalam”, 2005. –B.150.
4. Faniyev I., N.Afoqova, A.Faniyeva. Shavkat Raḥmon olami. – Toshkent: Akadem nashr, 2013. –B.144.
5. Raḥimjonov N. Davr va ўzbek lirikasi. – Toshkent: Fan, 1979. –B.190.
6. Meli S. Global talqin poetikasi. – Toshkent: Fan, 2000. – B.210 .